



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi

boshqarmasi

maktabgacha va

maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

maktabgacha ta'lim tashkiloti

o'rtasida tarbiyachisi

ning

“Ilk qadam” davlat dasturi uchinchi
nashri so

“Jamoat transporti oqim” shartnomasida
tashkillang

FAOLIYAT

ISHLANMAGAN

(Noyabr oyining 2-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*


Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

O'rta guruhlarga noyabr oyi 2-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruh: O'rta guruhlar uchun
Oy mavzusi: "Transport va xavfsizlik"
Hafta mavzusi: **Jamoat transporti odobi**
Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: bolalarning yo'l harakati haqidagi bilimlarini mustahkamlash, yo'l belgilari bilan tanishtirish;

Rivojlantiruvchi: tarbiyalanuvchilarda diqqat, xotira va kuzatuvchanlikni shakllantirish;

Tarbiyaviy: bolalarga jamoatjoylarida yurish odobini o'rgatish.

Kerakli jihozlar: AKT, yo'l harakati belgilari surati, chorraha maketi.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: Salom, alaykum, qiziquvchan tarbiyalanuvchilarim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizning birinchi ismi Azimjon mehmoningiz mehmoniga kelibdi. Azimjon, nimaga kayfiyating yo'q?

Azimjon: - Men ko'chani yo'lchilarni qo'llarini ushlamasdan yurgandim. Ularni yo'qotib qo'ydim. Katta shahar bolalarini haydigan yo'ldan o'tayotganda mashina urib ketishiga oz qoldi. Men yo'l o'tashni o'qishga qiynalyapman.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, Azimjon, siz ko'chada qayera olamizmi? Azimjon, diqqatingni monitorga qarat. Bolalar esa ko'chada yo'l o'tash qoidalarini tushuntirib beradilar.

1-bola: - Yo'lni faqatgina svetoorning yashil yoritilgan payti kesib o'tish kerak.

2-bola: - Piyoda yo'lning maxsus joyi - piyodalarning o'tish yo'li kesib o'tishi kerak.



Tarbiyachi: - Azimjon, monitorda piyodalar yo‘lkasi tasvirlangan. Piyodalar yo‘lkasi buyuruvchi belgi bo‘lib, faqat piyodalarning harakat qilishlariga ruxsat beradi. U istirohat bog‘lari va dam olish uylarining yolkalari hamda piyodalar uchun alohida ajratilgan joylarga o‘rnatiladi.

Piyodalar harakatlanadigan yolkalarda nogironlarni yurgichgizsiz aravachalarda olib yurishga, shuningdek, velosiped chanani yetaklab yurishga ham ruxsat etiladi. Bunday yo‘l bo‘lagiga yotiq chiziqlar chiziladi yoki to‘siqlar o‘rnatiladi.

3-bola: - Yo‘lni kesib o‘tish oldidan avval chapga, yo‘lning o‘rtasiga yetib bor- gandan so‘ng o‘ngga qarash kerak.

4-bola: - Harakatlanayotgan mashina oldidan yo‘lni kesib o‘tish mumkin emas.

5-bola: - K...da o‘ynash mumkin emas.



Tarbiyachi: - Bolalar, ogohlantiruvchi belgisi yo‘l bo‘lagida (maktab, kinoteatr, bolalar oromgohi kabilar joylashgan yo‘lda) bolalar o‘tish paydo bo‘lishi ehtimoli mavjudligi to‘g‘risida ogohlantiradi. Bunda ogohlantiruvchi kutilmaganda transport vositasini to‘xtatishga tayyor bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, tasavvur qiling, hozir biz sizlar bilan avtobusga... Qani, o‘rindiqlarga o‘tirib olamiz. Xo‘sh, avtobusda biz o‘zimizni qanday... kerak?

6-bola: - Avtobusda baland ovozda gaplashish, avtobus oynasidan qo‘llarni chiq... mumkin emas.

7-bola: - Avtobus salonida yugurib yurish, chiqindilarni tashlash mumkin emas.

Tarbiyachi: - To'g'ri aytdingiz. Endi esa sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz.

(Tarbiyachi harakatlarni ko'rsatib turadi.)

Barmoqqa barmoq tuk-tuk, Barmoqqa barmoq tuk-tuk. Chapak chalamiz shunday - Qollarni yozib bunday.



Tarbiyachi: - Bolajonlar, ta'limiy faoliyatimizni har kuni ertak bilan yakunlaymiz. Bir svetofor bor ekan. Uning uch kuzgisi qizil, sariq va yashil rangda yonar ekan. Kunlardan bir kun Svetofor kasal bo'lib qolibdi. Mashina qatnovi va piyodalar harakati tartibsiz bo'lib qolgan. Yo'ldan yurishni bilmay, piyodalar esa ko'chani kesib o'tolmay qolibdi. Biz bu muammoni hal qilish uchun Bilag'onni yordamga chaqirishni talab qildik.

Svetofor 3 raqami bilan do'st. Unga qo'ng'iroq qilib chaqiraylik, - deb Bilag'onni chaqiribdi.

Alio, alio. Do'stingiz svetofor kasal bo'lib qoldi, iltimos, tezroq unga yordam bersangiz.

Qizchanning xabaridan so'ng 3 zudlik bilan yetib kelibdi. U svetoforga uchta mazali pechenye yediribdi. Svetofor shirin va mazali shirinlikni yegach, tuzalibdi - chiroqlari yonibdi.

Pechenyelar muncha mazali, shirin bo'lmasa. Ichiga mayiz, yeryong'oq va turshak solingan, shekilli, - debdi Svetofor mamnun bo'lib.

Men shirinliklarga doim uchta masalliq - mayiz, yeryong'oq va turshak qo'shaman. Chunki ular juda foydali.

Bolalar, sizlarning ham yodingizda bo'lsin, quyoshli o'lkamizda pishib yetilgan va quritilgan mevalar inson sog'ligiga juda foydali. Tarkibida ko'p vitaminlar bo'lgani bois tanamizni quvvatga to'ldiradi, - debdi.

Uning yordamida Svetofor ishga tushibdi va yol harakati yana avvalgidek tartibga kelibdi.

Syujetli-roll o'yini va shinalashtirish markazi

Shahar bo'lgan yo'l harakati

Maqsad: bolalar ko'rsatmalar asosida o'yin harakatlarini bajaradilar, berilgan ko'rsatma asosida harakatlanadi.



Kerakli jihoz va materiallar: haydovchi kepikasi, rul, kelgich.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. «Bizning sevimli shahar» nomli fotoalbomni tomosha qilish.
3. «Yo'l harakati qoidalarini» harakatli o'yin.
4. Rollarni taqsimlash.
5. Syujetni boyitish.

Qo'shimcha: shahar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish. Qo'shiq, o'yinlar yordamida bajariladigan harakatlarni o'rganish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning muloqotga kirishish malakasi va mantiqiy rivojlantiriladi.

Til va nutq markazi

Suvning xususiyatlari bilan tanishuv:

Yer yuzidagi eng ajoyib ne'mat

Maqsad: bolalarning jonsiz tabiat, suv haqidagi tasavvurlari kengayadi va boyidi.

Kerakli jihoz va materiallar: AKT, globus, kolbalar, 2 ko'za suv, har bir bola uchun yelim stakanchalarda alohida suv, termos, ko'zgu, idishlarda muz bo'laklari, toshchalar, qog'oz salfetkalar.

Faoliyatning borishi:

Suv mavzusida suhbat. Videorolik namoyishi.

1-amaliy tajriba: Suv suyuq, oqib ketishi mumkin.

2-amaliy tajriba: Suv muz holatida ham bo'ladi.

3-amaliy tajriba: Suvning shakli yo'q.

4-amaliy tajriba: Bug'-bu suv.

Qo'shimcha: bolalarni erining modeli globus bilan tanishtirish, ularga suv va quruqlikdagi kengliklar to'g'risida ilk bilimlar berish. Bolalarda suvning qattiq, gaz, suyuq holati to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish.

E'tiborga molik jihati: bilishga bo'lgan Ishtiyoq hamda nutqiy faollikni rag'batlantirish.



Fan va tabiat markazi

«Rangli svetofor» mavzusida hikoya tuzish

Maqsad: bolalar svetofor to'g'risida biladilar, rasmga qarab hikoya tuzadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: mavzuga oid rasmlar va illyustratsiyalar, AKT, yo'l belgilari, rangli doiralar.

Faoliyatning borishi:

1. Suratlarni tomosha qilish.
2. Ta'limiy o'yin: So'zlarni ajratib ko'rsat.
3. Ta'limiy o'yin: E'tiborli bo'l.
4. Qisqa hikoyalar tuzish.

Qo'shimcha: bolalar lug'at boyligiga ko'proq harakatni ifodalovchi so'zlarni olib kirish.

E'tiborga molik jihati: so'zlardagi «S» tovushini to'g'ri talaffuz qilish.

San'at markazi

Rasm: «Svetofor»

Maqsad: bolalar kompozitsiya va ranglarni o'ylab topadilar, bo'yoq ishlatish texnikasini biladilar, bajarilgan ishni izohlab beradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: bo'yoq, mo'yqalam, A4 qajmli qog'oz, rangli qalam, namunalar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani tomosha qilish.
2. Bajarilishi lozim bo'lgan ishni rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tayyorlash.
4. Ijodiy ish.

Qo'shimcha: mavzu asosida hikoya tuzish.

Kitob o'qish va bolalar bilan suhbat.

E'tiborga molik jihati: qo'l barmog'ini maydonini rivojlantirish.

